



## RUS TILI VA O‘ZBEK TILI O‘RTADAGI RUS TILINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yusupova Barchinoy  
Qaxramanovna

EMAIL:

[barchinoy.yusupova@list.ru](mailto:barchinoy.yusupova@list.ru)

*Urganch davlat Universiteti  
Boshlanʻich talim (rus) talabasi*

**ABSTRACT:** Rus tili (rus. Русский язык) — jahonda keng tarqalgan tildir. Rus tili Birlashgan millatlar tashkilotidagi 6 rasmiy tildan biridir va tashkilotning ishchi tilidan biri sanaladi. Avval SSSRda, soʻng MDHda millatlararo va davlatlararo aloqa vositasi. Ukrain va belorus tillari bilan birgalikda hind-yevropa tillari oilasiga kiruvchi slavyan tillarining sharqiy guruhini tashkil etadi. Oʻtgan asrning 80-yillaridagi maʼlumotlarga koʻra, rus tilida soʻzlashuvchilarning umumiy soni 250 million kishidan, jumladan, hozirgi MDH mamlakatlarida 185 million kishidan iborat. Bundan tashqari, mazkur hududlardagi 60 milliondan ortiq kishi rus tilida erkin soʻzlasha oladi. Rus tili juda uzoq va murakkab rivojlanish tarixiga ega. Eng qadimgi rus adabiy tili Kiyev Rusida shakllangan boʻlib, u 14-asrgacha sharqiy slavyanlar uchun umumiy til hisoblangan. 14—15-asrlarda qadimgi rus tili 3 tilga — velikorus (rus), ukrain va belorus tillariga boʻlinib ketadi. Shu davrdan boshlab rus tili boshqacha aytganda, velikorus tili markazi Moskva boʻlgan Rus davlati hududida rivojlana boshlaydi.

**KEYWORDS:** rus tili, oʻzbek tili, fonetik, umumiy til, sheva, leksik.

### 1. INTRODUCTION

Rus tili lahja va shevalari 2 ga: shimoliy velikorus ("o" lovchi) va janubiy velikorus ("a" lovchi) guruhlariga boʻlinadi; oʻrta rus shevalari mazkur har ikkala guruh xususiyatlarini oʻzida aks ettiradi. 16—17-asrlarda shimoliy va janubiy lahjalar chegarasida boʻlgan Moskvada oʻziga xos koyne (umumiy lahja) shakllanib, u namunali tilga aylanadi. Qadimgi rus tili xususiyatlarini saqlab qolgan adabiy til bilan soʻzlashuv tili oʻrtasida sezilarli tafovutlar paydo boʻlib, 17-asrdan boshlab rus millati va rus milliy tili shakllana boshlaydi. 17-asr oxiri — 18-asr boshidagi adabiy til boy va ifodali, koʻplab gʻarbiy yevropa oʻzlashmalariga ega esada, barqaror boʻlmagan. Uni tartibga solish va barqarorlashtirishda M.V. Lomonosovning xizmatlari katta boʻlgan. 19-asr boshlarida adabiy tilning xalqchilligi bosh muammo hisoblanib, bu muammoning yechimida I.A. Krilov, A.S. Griboyedov, ayniqsa, A.S. Pushkin ijodi alohida oʻrin tutadi. Ayni Pushkin ijodida umummilliy rus adabiy tilining shakllanishi yakun topadi. Pushkinning buyuk xizmati shundaki, uning ijodida adabiy rus tilining umummilliy meʼyorlari ishlab chiqilgan va mustahkamlangan hamda bu meʼyorlar Pushkinning zamondoshlari va undan keyingi avlod tomonidan qabul qilingan.



## INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION

Web: <http://summusjournals.com/> ., Publisher OOO "SUMMUS"

### "INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN INNOVATIVE EDUCATION, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS, ANALYSIS AND FOREIGN EXPERIENCE"

Adabiy tilning boyishiga 19—20-asrlardagi rus adabiyotining mumtoz vakillari ulkan hissa qo'shdilar; 19 asrning 2-yarmidan boshlab uning rivojlanishiga yozuvchilar bilan bir qatorda jamoat arboblari, fan va madaniyat namoyandalari ham katta ta'sir ko'rsatib kelmoqdalar. Oktabr inqilobidan so'ng o'zgacha ijtimoiy tuzum, iqtisodiyot hamda fan va texnikaning rivojlanishi tufayli rus tilida, ayniqsa, uning leksikasida sezilarli o'zgarishlar paydo bo'ldi, adabiy tilning umumiy demokratlashuvi kuchaydi. Rus tili flektivsintetik tillardan bo'lib, unda 3 ta grammatik jins turkumsi, otlarning 3 xil turlanishi, fe'llarning 2 xil tuslanishi mavjud; ko'makchilar predlog ko'rinishida, ya'ni o'zi bog'lanadigan so'zlar oldidan joylashadi. Hozirgi rus alifbosi Kirill yozuvi (kirillitsa)ga asoslangan (qarang Rus alifbosi). Unda bitilgan eng qadimiy yodgorliklar 11-asrga taalluqlidir. 20-asr o'rtalaridan boshlab butun jahonda rus tilini o'rganish keng tarqaladi. Rus tili dunyodagi 100 dan ortiq mamlakatda o'qitiladi. 1967 yilda Rus tili va adabiyoti o'qituvchilarining xalqaro assotsiatsiyasi, 1973 yilda A.S. Pushkin nomidagi Rus tili instituti tashkil etilgan. Sovet davrida O'zbekiston SSRda va ittifoqdosh respublikalarda rus tilini o'qitish-o'rgatishga alohida e'tibor berilgan.. Hozirgi paytda ham O'zbekiston respublikasida rus tilini o'rgatish ahamiyati katta.

## 2. MAIN PART

O'zbek va rus tillari leksikasi, eng avvalo, bu tillarning genetik jihatdan turli oilalarga mansubligi bilan farqlanadi. O'zbek tili tipologik jihatdan ko'plab olimlar tomonidan barcha agglutinativ tillar qatorida oltoy tillari oilasi qamrovi ga kiritilgan bo'lsa-da, genetik jihatdan u alohida bir oilani tashkil etgan turkiy tillar guruhiga kiradi. Tilimiz lug'aviy boyligining asosini umumturkiy va o'zbekcha so'zlar tashkil qiladi. Rus tili esa ham tipologik, ham genetik jihatdan hind-yevropa tillari oilasining slavyan guruhiga mansub, shuning uchun uning asosini umumslavyan va qadimgi rus so'zlari tashkil etadi. Har ikkala til leksikasi tarixiy taraqqiyoti davomida turli hodisalarga uchragan, ularning lug'aviy tarkibini ham har xil tillardan o'zlashgan so'zlar tashkil qiladi. Masalan, o'zbek tilida fors-tojikcha va arabcha so'zlar ko'p uchraydi, rus tilida esa yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar talaygina.

O'zbek tili leksikasi asosan:

- umumturkiy so'zlar ( men, biz, bosh, tog' bir, ikki, ona, ota...)
- o'zbekcha so'zlar (ishchi, ishla, tinchlik, yoshlik, jangchi, bilim...)
- arabcha so'zlar (axborot, maktab, madaniyat, adabiyot, haqiqat...)
- fors-tojikcha so'zlar (oftob, gul, dastro'mol, dutor, daraxt...)
- o'zlashma so'zlar (samolyot, kompyuter, roman, dizayner, avtobus, trolleybus, drama...) kabi qatlamlardan iborat.

Rus tilining leksik qatlamlari:

- umumslavyan so'zlari: дом, город, голова, мать, отец, брат, день...
- qadimgi rus tillari: галка, снегопад, добрый, потолок...
- asl ruscha so'zlar: учитель, водитель, зарплата, раздевалка, зажигалка...
- boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar: кофта, булка (polyak), арбуз, казна (turkiy), грамота, лавр (grek), иллюзия, компот (fransuz), вокзал, трамвай (ingliz), опера, дуэт (ispan), va h. k.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida rus tilidan va shu til orqali boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar so'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra qariyb 50 % ni tashkil etadi. Tilimiz leksikasi tarkibidagi ruscha-baynalminaol so'zlar ilmiy-texnikaviy adabiyotlarda ham, og'o'zaki nutqda ham faol so'zlar qatorida qo'llanadi. Ammo o'zlashma so'zlar bilan rus tilidagi aynan shu so'zlar o'rtasida ma'lum farqli jihatlar mavjud bo'lib, ular quyidagilarda o'z aksini topadi. O'zbek tilidagi o'zlashma so'zlarda ma'no torayishi, kengayishi yoki o'zgarishi hollari kuzatiladi. Masalan, ruchka so'zi rus tilida qo'lcha (kichkina



## INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION

Web: <http://summusjournals.com/> ., Publisher ООО "SUMMUS"

### "INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN INNOVATIVE EDUCATION, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS, ANALYSIS AND FOREIGN EXPERIENCE"

qo‘l), tutqich, yozuv quroli kabi uchta ma‘noga ega, o‘zbek tilida esa bu so‘z faqat yozuv quroli ma‘nosida qo‘llanadi. Rus tilidan o‘zlashgan kartmon (karman, ya‘ni cho‘ntak) so‘zi esa o‘zining rus tilidagi haqiqiy ma‘nosidan chekinib, o‘zbek tilida butunlay boshqa ma‘no (pul solinadigan xaltacha) kasb etgan bo‘lsa, samovar so‘zi rus tilidagi birgina choy qaynatish idishi ma‘nosidan tashqari o‘zbek tilida qo‘shimcha ma‘no – choyxona ma‘nosini hosil qilgan.

### 3. CONCLUSION

O‘zbekcha va ruscha so‘zlarning ma‘nolari miqdor jihatidan ikkala tilda har doim ham muvofiq kelavermaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi o‘qimoq so‘zi ham «o‘qimoq», ham «o‘rganmoq» ma‘nolarini beradi. Rus tilida esa bu ikki ma‘no ikki xil so‘z (читать, учить) bilan ifodalanadi. S.I.Ojegovning izohli lug‘atida идти so‘zining 24 ta ma‘nosi berilgan, o‘zbek tilidagi bormoq so‘zi esa «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da berilishiga ko‘ra, oltita ma‘noga ega. Xuddi shuningdek, O‘TIL da chiqmoq so‘zining 22 ta ma‘nosi ajratilgan, rus tilidagi выйти so‘zi esa 7 ta ma‘noni bera oladi.

### REFERENCES

- 1 Бабенко Л.Г. Лексикология русского языка. Учебное пособие. Екатеринбург. 2008 г.
2. Брицын М.А. Современный русский язык. – М.: Вища школа, 1983.